

## Xorazm viloyatida oliy ta'lim tizimining asosiy ko'rsatkichlari


2019 - yilning 1 - noyabr holatiga Xorazm viloyatida 3 ta oliy ta'lim muassasalari Urganch davlat universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali faoliyat yuritmoqda.

2019/2020 - o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalarida jami 16,2 ming nafar talaba ta'lim olayotgan bo'lib, ularning 54,4% ini qizlar tashkil qiladi. Talabalarning 20,4% i grant asosida ta'lim olmoqda.

2018/2019 - o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalarda jami 13,4 ming nafar talabalar ta'lim olgan bo'lib, 54,0% ini qizlar tashkil etgan.


Talabalarning 22,6% i davlat grantlari asosida ta'lim olgan.

2018/ 2019-  
o'quv yili




- Talabalar soni (ming kishi)  
ulardan: qizlar (ming kishi)

2019/ 2020-  
o'quv yili




- Talabalar soni (ming kishi)  
ulardan: qizlar (ming kishi)

## Ta'lim sohalari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar soni, % da



2019 - yili bitiruvchilarining 54,7% i gumanitar sohasi, 3,7% i ijtimoiy soha, iqtisod va huquq sohasi, 28,3% i ishlab chiqarish va texnika sohasi, 1,7% i qishloq va suv xo'jaligi, 5,7% i sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi, 5,9% i xizmatlar sohasi bo'yicha bitirgan.


## Ta'lim sohalari bo'yicha qabul qilingan jami talabalar, % da




## Ta'lim olib boriladigan tillar bo'yicha oliy ta'lim muassasalaridagi jami talabalar, % da

90,3% o'zbek tilida


9,7% rus tilida



## Oliy ta'lim muassasalari talabalarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, kishi (2019-2020 o'quv yili boshida)



## Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi, % da




2019/2020 - o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning 7,4 ming nafarini o'g'il bolalar, 8,8 ming nafarini qizlar tashkil qiladi.

**O‘qiydigan kurslari bo‘yicha bakalavriat  
bosqichi talabalari soni, ming kishi  
(2019-2020 o‘quv yili boshida)**

	1-kurs	2-kurs	3-kurs	4-kurs	5-kurs	6-kurs
Xorazm viloyati	3.5	3.3	3.2	2.2	0.2	0.2
Urganch davlat universiteti	2.8	2.7	2.7	1.9	0.08	
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali	0.4	0.3	0.2	0.1	0.1	0.2
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali	0.3	0.3	0.3	0.2		

**2019/2020 - o‘quv yilida oliy ta’lim muassasalari  
bakalavriatiga qabul, kishi  
(2019-2020 o‘quv yili boshida)**



- Shartnomalar asosida qabul qilingan talabalari soni, kishi
- Davlat grantlari asosida qabul qilingan talabalari soni, kishi

## Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif olayotgan baqalavriatlarni sohalar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi



Jami ta'lif olayotgan bakalavr bosqichidagi talabalar soni 16,0 ming nafarni tashkil etgan bo'lib, gumanitar sohada 9,0 ming nafar, ijtimoiy soha, iqtisod va huquq yo'nalishida 0,5 ming nafar, ishlab chiqarish va texnik sohada 4,0 ming nafar, qishloq va suv xo'jaligi yo'nalishida 0,3 ming nafar, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot yo'nalishida 1,3 ming nafar, xizmatlar sohasida 0,9 ming nafar talabalar ta'lif olmoqda.



**9,0** Gumanitar soha



**0,5** Ijtimoiy soha,  
iqtisod va  
huquq



**4,0** Ishlab  
chiqarish va  
texnik soha



**0,3** Qishloq va  
suv xo'jaligi



**1,3** Sog'liqni  
saqlash va  
ijtimoiy  
ta'minot




**0,9** Xizmatlar  
sohasi

## 2019 - yil oliy ta'lif muassasalariga bakalavriati bitiruvchilari va ularning sohalar bo'yicha taqsimlanishi, % da




2019 - yilda bakalavr darajasiga ega bo'lgan talabalar soni 2,4 ming nafarni tashkil etib, ularning 0,7 ming nafari davlat grantlari asosida ta'lif olgan. 2019 - yilda bakalavriat bosqichini bitirganlarning 1,2 ming nafarini qizlar (51,1% ini) tashkil etadi.

Bakalavriat bosqichi bitiruvchilarining 54,2%i gumanitar soha, 3,7%i ijtimoiy soha, iqtisod va huquq sohasi, 28,6%i ishlab chiqarish va texnika sohasi, 1,7%ni qishloq va suv xo'jaligi, 5,9%ni sog'lijni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi, 5,9%ni xizmatlar sohasi bo'yicha bitirgan.




## Oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga talabalar qabuli

2019/2020 - o'quv yili uchun magistraturaga qabul qilingan jami 155 nafar talabalardan 53,5% i (83 nafari) davlat granti asosida, 46,5% i (72 nafari) to'lov shartnomasi asosida qabul qilindi.



## Oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida ta'lim olayotgan talabalarning ta'lim sohalari bo'yicha taqsimlanishi, % da

Magistratura bosqichida ta'lim olayotgan jami talabalar soni 259 nafarni tashkil etib, ulardan 75,7%gi gumanitar soha, 5,4%gi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq sohasi bo'yicha, 12,0%gi ishlab chiqarish va texnika sohasida, 3,0%gi sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasida va 3,9%gi xizmatlar sohasida ta'lim olmoqda.



## Oliy ta'lim muassasalarida proffesor-o'qituvchi xodimlar




Oliy ta'lim muassasalarida 2019/2020 - o'quv yili boshiga jami 1082 nafar proffesor-o'qituvchilar ta'lim bermoqda, ulardan 42,7% ini ayol o'qituvchilar tashkil etadi. Asosiy xodimlardan ilmiy darajaga ega 23 nafar fan doktorlari, 178 nafar fan nomzodi va 22 ta falsafa fanlari doktori, ilmiy unvonga ega 17 nafar professor va 98 nafar dotsentlar tashkil etadi.




2018/2019 - o'quv yili boshida jami 915 nafar proffesor-o'qituvchilar ta'lim bergen bo'lib, ulardan 41,9% ini ayol o'qituvchilar tashkil etgan. Asosiy xodimlardan ilmiy darajaga ega bo'lgan 25 nafar fan doktorlari, 193 nafar fan nomzodi va ilmiy unvonga ega bo'lgan 12 nafar proffesor va 83 ta dotsentlar tashkil etgan.



2018/2019 va 2019/2020 - o'quv yillari boshiga proffesor-o'qituvchilarning ilmiy darajasi bo'yicha taqsimlanishi, kishi



Oliy ta'lim muassasalarida bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan  
talabalar soni, kishi  
(2019-2020 o'quv yili boshida)



2019/2020 - o'quv yili boshiga Xorazm viloyati oliy ta'lim muassasalarida bitta o'qituvchiga o'rтacha 15 nafar talaba to'g'ri keladi.

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

(62) 224-65-21